

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI TOIFALASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONI VA UNING AHAMIYATI

Achildiyev Abdug'ani Abdullajonovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi xuzuridagi soliq qo'mitasi xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat xizmatchilarini toifalash mexanizmini takomillashtirishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit sozlar. *Tashkilot, fuqaro, xizmat, mezon, rivojlanish, resurs, imkoniyat, samara, islohot.*

Аннотация. *В данной статье представлены мысли и мнения о важности совершенствования механизма классификации государственных служащих.*

Ключевые слова. *Организация, гражданин, услуга, критерий, развитие, ресурс, возможность, эффективность, реформа.*

Abstract. *This article presents thoughts and opinions about the importance of improving the mechanism of classification of civil servants.*

Key words. *Organization, citizen, service, criterion, development, resource, opportunity, efficiency, reform.*

Jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar tomonidan —Yangi O_zbekiston|| deya ta'rif etilayotgan, zamon talabiga mos ravishda islohotlar ko_lamini kengaytirib borayotgan mamlakatimiz yangidan yangi o_zgarishlarni amalga oshirmoqda.

Ayniqsa, O_zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bugun davlat fuqarolik xizmatini tartibga solish, uning bosh maqsadi bo_lgan xalqning manfaatini birinchi o_ringa qo_ygan holda aniq mezon va qat'iy talablar asosida ish olib borishini ta'minlash maqsadida islohotlar va davlat fuqarolik xizmatini modernizatsiyalash ishlari olib borilmoqda. Xususan, O_zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi yurtimizda davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish, zamonaviy xodimlar boshqaruvi tizimini amaliyotga joriy etish, inson resurslarini rivojlantirish sohasida keng qamrovda ish olib bormoqda.

O_zbekiston davlat fuqarolik xizmatida teng imkoniyatlar tamoyilini qo_llab- quvvatlagan holda, fuqarolar manfaatlariga xizmat qiladigan, mamlakatning har tomonlama rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo_shadigan professional, hisobdor va samarali davlat boshqaruvini shakllantirishni maqsad qilgan.

Ta'kidlash lozimki, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 37-moddasi aynan davlat xizmatiga bag_ishlangan unda shunday deyiladi:

- O_zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar.

- Davlat xizmatini o_tash bilan bog_liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi.

Davlat xizmatiga kirishda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar – ishga qabul qilish va tanlash jarayonlarida adolat, oshkoralik va meritokratiyaga ko_maklashuvchi asosiy

tamoyildir. Bu shaxslarning malakasi va qobiliyatidan kelib chiqqan holdagina davlat xizmatini egallash uchun teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur tamoyilga ko'ra, talab qilinadigan malaka va mezonlarga javob beradigan barcha O'zbekiston fuqarolari davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga tanlov asosida ishtirok etish huquqiga ega. Tanlov jarayoni odatda test va suhbatlar, hamda nomzodlarning bilimi, malakasi, tajribasi va lavozimga muvofiqligini baholash orqali amalga oshiriladi. Nomzodlarni saralash jarayoni va ishga qabul qilish shaffof, ob'ektiv va holisona bo'lishi belgilangan. Ular jinsi, etnik kelib chiqishi, dini, ijtimoiy mansubligi yoki malaka talablari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa shaxsiy xususiyatlar kabi kamsitishning har qanday shakllaridan xoli bo'lishi kerak. Asosiy e'tibor nomzodlarning o'z vazifa va vakolatlarini lozim darajada bajarish uchun yetarli malakaga, imkoniyatlar va salohiyatga egaligiga qaratiladi.

—Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun loyihasining muhokamalarga sabab bo'ladigan ayrim jihatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 3-moddasida: —Ayrim toifadagi davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi xususiyatlaridan kelib chiqib, qonun normalariga to'liq va qisman amal etilmasligi belgilab berilgan. Agar xalqaro tajribani oladigan bo'lsak, qonunning nomidan kelib chiqsak, ya'ni —Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi fuqarolik degan so'z turibdi. Davlat xizmati bu – keng qamrovli tushuncha. Lekin davlat fuqarolik xizmati bu – boshqa xizmat. Ya'ni professional davlat xizmati.

Butun dunyo tajribasi, umume'tirof etilgan qoidaga asosan boshqa davlatlarda ham davlat xizmati ikkita toifaga bo'linadi. Bu o'sha biz aytgan davlat fuqarolik xizmati va siyosiy xizmatchilar.

—Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun loyihasida mana shu 3-moddada istisno qilingan toifa bu – siyosiy xizmatchilar hisoblanadi. Deputatlarimiz, sudyalari, ya'ni ularni tayinlash, majburiyati, yuklatilgan vazifani amalga oshirish qonun, tartib-talablari umuman boshqacha. Fuqarolik xizmatiniki boshqacha.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – meritokratiya. Ikkinchisi bu – karera modeli. Qonun talablarini sudyaga, deputatlarga tatbiq qilolmaymiz. Tanlov asosida joylashimiz kerak.

Deputat saylanadi, deputat – xalq vakili. Deputatga nisbatan attestatsiya qilish, karera, o'sish degan narsa yo'q. U boshqacha mavqega ega. U davlat xizmatida alohida kategoriya hisoblanadi. Xo'sh, bugungi kunda davlat organlari va tashkilotlarida kadrlar ma'muriyatchiligining zamonaviy usullarini joriy etishdan qanday maqsadlar ko'zlangan:

Birinchi, davlat xizmatida meritokratiya tamoyilini qo'llash, ya'ni kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash.

Ikkinchi, davlat fuqarolik xizmatining "karyera modeli"ni joriy etish, ushbu modelga ko'ra kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash va ularga malaka martabalari (darajalari) berish orqali xizmat karyerasining lavozim pog'onalaridan bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash.

Uchinchidan, davlat fuqarolik xizmatiga nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov asosida saralab olish, bunda nomzodning barcha fazilatlari va ustunliklarini, shu jumladan uning ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik sifatlarini obyektiv baholash.

To'rtinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilari mehnatiga haq to'lashning yagona tizimini joriy etish, bunda davlat organi va tashkiloti darajasidan (respublika, viloyat, tuman va shahar), xodimning malaka martabasi (darajasi) va shaxsiy hissasidan kelib chiqqan holda ish haqini belgilashga nisbatan unifikatsiyalashtirilgan talablarni o'rnatish.

Beshinchidan, milliy, respublika, tarmoq va hududiy darajalarda professional tayyorlangan samarali kadrlar zaxirasini shakllantirish.

Oltinchidan, davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarishda va inson resurslarini rivojlantirish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Yettinchidan, Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning o'lchanadigan indikatorlari (eng muhim ko'rsatkichlari) tizimini joriy etish orqali ularning faoliyatini samaradorligini oshirish ko'zlangan.

Masalan, bugungi kunda nomzodlarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda ularning aniq yo'naltirilgan kompetensiyalarni egallashi talab etiladigan asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur jarayonning amalga oshirilishi ham yuqorida darajada shaffoflikni talab etadi va bu jarayonda ham jamoatchilik nazorati katta ahamiyat kasb etadi. Zero, demokratik huquqiy davlat sari odimlayotgan har qanday jamiyatda davlat va fuqaro o'rtasida o'zaro bir biriga bo'lgan huquq va majburiyatlarga asoslangan yuridik aloqadorlik mavjud bo'ladi hamda mazkur munosabatlar turli demokratik shakl, vosita va usullar orqali amalga oshiriladi. —Davlat fuqarolik xizmatini to'g'risidagi qonunga ko'ra Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Davlat fuqarolik xizmatiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinishi belgilangan. Bundan tashqari chet el mutaxassislari va ekspertlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda egallashi mumkinligi, Chet el mutaxassislari va ekspertlarining xizmatini o'tash tartibi hamda shartlari tegishli shartnoma asosida belgilanishi mumkinligi, Davlat fuqarolik xizmatiga o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, sudning qarori bilan muayyan muddatga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilingan shaxslar, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxslar, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar, hamda tibbiy xulosaga asosan sog'lig'ining holati davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash imkonini bermaydigan shaxslar qabul qilinmaydi.³ Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash tanlov asosida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar belgilandi:

- kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog_onalari bo_yicha ko_tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo_llash;

- kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash va ularga malaka martabalari (darajalari) berish orqali xizmat karyerasining lavozim pog_onalaridan bosqichma-bosqich o_tishni nazarda tutuvchi davlat fuqarolik xizmatining

—karyera modelini joriy etish;

- nomzodning barcha fazilatlarini va ustunliklarini, shu jumladan uning ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik sifatlarini obyektiv baholash imkonini beradigan ochiq mustaqil saralab olish asosida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish;

- davlat organi va tashkiloti darajasidan (respublika, viloyat, tuman va shahar), xodimning malaka martabasi (darajasi) va shaxsiy hissasidan kelib chiqqan holda ish haqini belgilashga nisbatan unifikatsiyalashtirilgan talablar o_rnatilishini nazarda tutuvchi davlat fuqarolik xizmatchilari mehnatiga haq to_ lashning yagona tizimini joriy etish;

- milliy, respublika, tarmoq va hududiy darajalarda professional tayyorlangan samarali kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatiga eng malakali nomzodlarni saralab olish uchun xususiy bandlik agentliklarini faol jalb etish va zamonaviy outsorsing shakllaridan foydalanish;

- davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarishda va inson resurslarini rivojlantirish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- davlat fuqarolik xizmatchilariga ijtimoiy kafolatlar, shuningdek, ularni o_z kasb mahoratini va faoliyat samaradorligini oshirish uchun rag_batlantirish va qo_llabquvvatlashning samarali tizimini joriy etish.

Nazarimizda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib davlat xizmatida samaradorlik ko'rsatgichlarini joriy etishda ko'rsatgichlarni aniq chegaralangan sonini belgilanish, davlat xizmatining xususiyatidan kelib chiqib, vazifa va funksiyalarni hisobga olgan holda soha yo'nalishiga qarab samaradorlik ko'rsatgichlarini belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2022-y., 10/22/3407/1127-son
2. —O_zbekiston Respublikasida Kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to_g_risidalg_i O_zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5843- son Farmoni.
3. —O_zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to_g_risidalg_i O_zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4472-son qaror
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/548/0836-son; 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son; 30.04.2022-y., 09/22/230/0377-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son; 18.12.2023-y., 09/23/665/0942-son